



TIIAME

2-bosqich 1-semestr
4-mavzu:Tobe bo‘lakning hokim bo‘lakka kelishik
qo‘shimchalari yoki ko‘makchilar yordamida
bog‘lanishi va ularning sinonimiyasi

Ona tili

Abdukadirova M.M.



TILAME

Reja:

1. So‘z birikmasi haqida.
2. Tobe va hokim qismlarni bog‘lovchi vositalar.
3. Kelishiklar yordamidagi tobe bog‘lanish.
4. Ko‘makchilar yordamidagi tobe bog‘lanish.
5. Kelishik va ko‘makchilar sinonimiyasi.



TIIAME

"Aqliy hujum" savollari. Quyidagi topshiriqlayni bajaring.

I.Tobe va hokim bo‘laklarning o‘rmini toping.Tobe bo‘lak hokim bo‘lakka bitta kelishik yordamida bog‘lanadimi yoki bir nechta kelishik bilan ham bog‘lanishi mumkinmi?

- | | | | |
|-----------|----------------|-----------|------------------|
| Ot | -ning □ | ot | -im (-m) |
| | | | -ing (ng) |
| | | | -i (-si) |

II.Quyida qanday holat ifodalangan? Bog‘lovchi vositalarning o‘rni qanday tartibda joylashadi?

- | | | | |
|-------------|----------|-------------------|-----------------|
| • Ot | □ | ot | -im (-m) |
| • | | -ing (-ng) | |
| • | | -i (-si) | |



TILAME

So‘z birikmasi

Boshqaruv

Anvarni ko‘rmoq
Litseyga bormoq
Dalada bo‘ldim
o‘limdan qolmoq
Ukam **uchun**
oldim
Radio **orqali**
gapirmoq

Moslashuv

Qaratqich kelishigi -
ning
Birlik:
I Shaxs. Mening
kitobim
II Shaxs. Sening
kitobin
III Shaxs. Uning
kitobi

Bitishuv

Ifodali o‘qimoq
(ohang)
Daftар olmoq
(ohang)



TIIAME

TOBE SO'ZNING HOKIM SO'ZGA BOG'LANISH USULLARI:

1. Bitishuv- tobe va hokim so'z hech qanday qo'shimchasiz, faqat ohang va ma'nosiga ko'ra bog'lanadi. *Masalan, chiroyli gapirmoq, yangi bino, tez yugurmoq.*

2. Boshqaruv- tobe so'z hokim so'zga tushum, jo'nalish, o'rin-payt, va chiqish kelishigi qo'shimchalari va ko'makchilar yordamida bog'lanadi. *Masalan, do'stlarni himoya qilmoq, telefonda gaplashmoq, kitobdan o'qimoq, sharoitga ko'ra yondashmoq.*

3. Moslashuv- tobe so'z hokim so'zga qaratqich kelishigi qo'shimchasi yordamida, hokim so'z esa tobe so'zga egalik qo'shimchalari yordamida bog'lanadi. *Masalan, kitobning varog'i, bizning sinfimiz, sizning ukangiz.*



TILAME

BILAMAN	BILISHNI XOHLAYMAN	BILIB OLDIM
<p>Bir-biri bilan tobelanish asosida birikkan, ma`no va grammatik jihatdan o‘zaro bog‘langan ikki yoki undan ortiq so‘z.</p>	<p>So‘z birikmasi tarkibidagi tobe va hokim so‘zlar xususiyati haqida</p>	<p>Tobe bo‘lakning hokim bo‘lakka kelishik, egalik qo‘sishchalar, ko‘makchilar va tobelahtiruvchi ohang yordamida bog‘lanishi. Masalan, oq gul, katta ko‘p xonali uy.</p>
<p>Saxiy inson, insonning umri, bolalarga g‘amxo‘rlik, kattalardan biri, kitobnio‘qimoq, shahardayashamoq, tozahavo</p>	<p>Tobe va hokim bo‘lakni bog‘lovchi vositalarning o‘rnini haqida</p>	<p>1.Kelishik, ko‘makchi, ohang tobe qismga. 2.Qaratqich kelishigi tobe qismga, egalik qo‘sishchasi hokim qismga.</p>
<p>Maktabga bormoq, maktab tomon bormoq, oshni yemoq, oshdan yemoq, otdan baland</p>	<p>Tobe va hokim bo‘lakni bog‘lovchi vositalarning xususiyati haqida</p>	<p>Kelishiklarda ma`no aniq, ko‘makchilarda esa noaniq; kelishik va ko‘makchilar o‘zaro almashinib qo‘llanadi va sinonimiya vujudga keladi</p>



TIIAME

Tobe bo‘lakning hokim bo‘lakka kelishik, egalik qo‘shimchalari, ko‘makchilar va tobelashtiruvchi ohang yordamida bog‘lanishi **so‘z birikmasi** deyiladi.

So‘z birikmasida doimo ikkita qism bo‘ladi. Ularning bittasi tobe, ikkinchisi esa hokim bo‘ladi. Tobe bo‘lak hokim bo‘lakka ma’lum bog‘lovchi vosita yordamida bog‘lanadi. Demak, bog‘lovchi vosita tobe bo‘lak oxiriga qo‘shiladi.



Bundan faqat egalik qo'shimchasi yordamida bog'langani mustasno. Egalik qo'shimchasi hokim bo'lak oxiriga qo'shiladi. Tobe bo'lak esa qaratqich kelishigida turadi. Ba'zan qaratqich kelishigi ifodalanmasligi ham mumkin.

Masalan, *litseyning bog'i — litsey bog'i*.

Bundan ko'rinaradiki, so'z birikmasida tobe bo'lak bilan hokim bo'lakning joylashish o'rni ham aniq bo'ladi. Tobe bo'lak oldin, hokim bo'lak esa keyin keladi.




TIIAME

Tobe bo‘lakni hokim bo‘lakka bog‘lovchi vositaning qo‘shilish o‘rnii ikki xil bo‘ladi: kelishik, ko‘makchi va ohang tobe qismga, egalik qo‘shimchasi esa hokim qismga qo‘shiladi.

Tobe bo‘lak hokim bo‘lakka ko‘makchilar yordamida ham bog‘lanadi.

Masalan:*Istiqlol uchun kurashmoq. Toshkent tomon yo‘nalmoq.*

Tobe bo‘lak hokim bo‘lakka ko‘makchilar yordamida bog‘langanda, ko‘p hollarda kelishik bilan birgalikda yoki kelishik bilan almashinib qo‘llanilishi mumkin. Natijada kelishik qo‘s Shimchalari va ko‘makchilar sinonimiyasi vujudga keladi. Uni quyidagi sxema orqali ifodalash mumkin:





TIIAME

- Kelishik qo'shimchalari bilan ko'makchilar o'zaro sinonimik munosabatda bo'lsa ham, ular o'rtasida ma'lum ma'no farqlanishi mavjud. Kelishik qo'shimchasi yordamida bog'langanda hokim bo'lak ifodalagan harakatning chiqish yoki yo'nalish nuqtasi aniq, ko'makchi yordamida bog'langanda esa noaniq bo'ladi.
 - Solishtiring:
 - Maktabga ketdi. Maktab tomon ketdi. Maktabga tomon ketdi.
 - Maktabdan chiqdi . Maktab tomondan chiqdi .



TIIAME

So‘z birikmasi va turg‘un bo‘glanma.

So‘z birikmalaridagi so‘zlarni, erkin bog‘langanligi uchun, almashtirish mumkin, turg‘un bog‘lanma (ibora)lardagi so‘zni almashtirib bo‘lmaydi, ular bir ma’no ifodalash qonuniyati asosida turg‘unlashgan, yaxlitlangan bo‘ladi: bo‘yniga qo‘ymoq (iqror qilmoq), ko‘nglidan o‘tkazmoq (o‘ylamoq), o‘pkasi yo‘q (hovliqma) kabi.

So‘z birikmasi va turg‘un bo‘glanma gapda o‘xshash shaklda uchrashi mumkin, lekin biri tushuncha, biri leksik ma’no ifodalaydi. Qiyoslaymiz: Bu yuk hozircha omborning **ichiga sig‘maydi**. – Shu kunlarda Feruzaning sevinchi **ichiga sig‘maydi**.



TIIAME

Mashq.

- **III.Ko‘chiring. So‘z birikmalarini ajrating. Tobe bo‘lakdan hokim bo‘lakka chiziqcha tortib, chiziqning tepasiga ularning bog‘lanish usullarini yozib qo‘ying.**
 1. Tarixni anglash orqali insonda hayotni anglash qobiliyati shakllanadi.
 2. Inson tarixning yaratuvchisi, ishtirokchisi va uni dunyoga keltiruvchi eng oliy xilqat ekanligini va bu rad etib bo‘lmas haqiqatligini tan olamiz.
 3. Insoniyat tarixi bu har birimizga bog‘liq bo‘lgan, o‘zligimizni ko‘rsatadigan, bizning olis shajaramizni, nasl-u nasabimizni, insoniy qadr-u qimmatimizni belgilaydigan muqaddas va mo‘tabar voqelikdir.
 4. Biz g‘olib chiqmoqchi ekanmiz, bunda bizga yangicha g‘oya kerak. Bu g‘oyaning zamirida xalqimizning o‘zligini anglashi yotadi. Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o‘zlikni anglash mumkin emas.



Mavzuga oid test topshiriqlari.



TIIAME

1. Hovli yuzini yog‘ tushsa yalaguday holga keltirgan edi. Ushbu gapda nechta so‘z birikmasi mavjud?

- A. 6 B. 7 C. 5 D. 8 E. 4

2. Bitishuv munosabatidagi birikmalar berilgan qatorni aniqlang.

- A. ko‘klam quyoshi, bahor tongi
B. olis yo‘llar, tez yurdi, qizil olma
C. o‘lkamiz chiroyi, maktab bordi, ko‘l suvi
D. xat yozdi, quduq qazdi, so‘z sehri
E. A va B.



TIIAME

3.Qo‘qqisdan kirib kelmoq . Ushbu birikmadagi so‘zlarning o‘zaro aloqasi qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A. boshqaruv
- B. bitishuv
- C. kelishikli boshqaruv D. moslashuv
- E. A va S

4.Sifat + Ot shaklidagi birikuvlarda quyidagi vositalarning qaysi biridan foydalaniadi? 1. kelishik qo‘srimchalaridan 2.ko‘makchilardan 3.ohangdan 4.so‘z tartibidan

- A. 1,2
- B. 2,3
- C. 3,4
- D. 2,4
- E. 1,3



Uyga vazifa: Rasm asosida «Ozod Vatanim mening» mavzusida matn tuzing. Matnda ishlatilgan so‘z birikmalariga diqqat qiling.



TILAME

